

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02.2020. T.73.02
RAQAMLI KENGASH**

**CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM
YURTI**

XUSANOVA DJAMILYA KURAMBAYEVNA

**QUVURLARDA IKKI FAZALI OQIMNING TASHUVCHANLIK
QOBILIYATINI HISOBLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.07 - Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Xusanova Djamilya Kurambayevna

Quvurlarda ikki fazali oqimning tashuvchanlik qobiliyatini hisoblash uslubini
takomillashtirish..... 3

Хусанова Джамиля Курамбаевна

Совершенствование методов расчёта транспортирующей способности
двухфазного потока в трубопроводах..... 20

Khusanova Djamilya Kurambaevna

Improvement of methods for calculating the transport capacity of two - phase
flow in pipelines..... 38

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/27.02. 2020.T.73.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM
YURTI**

XUSANOVA DJAMILYA KURAMBAYEVNA

**QUVURLARDA IKKI FAZALI OQIMNING TASHUVCHANLIK
QOBILIYATINI HISOBLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.07 - Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.PhD/T4535 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida va Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tashiit.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Arifjanov Aybek Muxamedjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxodirov Azizbek Abdulazizovich
texnika fanlari doktori, professor

Jo'rayev Sherali Sharipovich
t.f.f.d. (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/27.02.2020.T.73.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temir yo'Ichilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (+99871) 299-00-01; faks: (+99871) 293-57-54; e-mail: tashiit.rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temir yo'Ichilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (+99871-299-05-66))

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

A.V. Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

E.U. Teshabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d.,
professor

N.Q. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish, suv ta'minoti, kanalizatsiya, tog' - kon sanoati, kimyo va boshqa sohalarda ikki fazali oqimlar harakatlanadigan quvurlar tizimidan oqim harakatining boshqarish uchun energiya, resurs tejash texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida suv ta'minotida tashuvchanlik qobiliyatini oshirishda, iqtisodiy va gidravlik qulay yechimlarini topishda quvurlarda ikki fazali oqimlarning tarkibiy qismi, fazalarning o'zaro ta'sirini har xil harakat rejimlarida inobatga olib hisoblash usullarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan quvurlarda ikki fazali oqimlar harakatini hisoblashda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda quvurlar tizimi bilan bog'liq inshootlarni loyihalash, qurish va ulardan samarali foydalanishda suv tarkibidagi har xil oqiziq zarrachalarini harakat qonuniyatlarini tadqiqoti asosida, oqiziq zarrachalarining quvur chuqurligi va uzunligi bo'yicha taqsimoti dinamikasini aniqlash, oqiziqqlar mavjud oqimni tashuvchanligini baholash hamda quvurlar tizimi gidravlik samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy - tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, suv ta'minoti va kanalizatsiya oqimidagi suv va har xil zarralar oqimi dinamikasini aniqlash hamda ularning parametrlari va hisoblash usullarini asoslash va boshqarish usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda suv va oqova quvurlaridan samarali foydalanish, ichimlik suvini uzluksiz yetkazib berish bilan bir qatorda kanalizatsiya quvurlarini optimal gidravlik rejimda ishlashini ta'minlash, oqiziqqlarning mexanik va kimyoviy tarkibini inobatga olgan holda gidravlik hisoblashlarning yangi zamonaviy usullarini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora - tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «O'zbekiston - 2030»¹ strategiyasi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «...Ichimlik suv sifati, ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalari samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy etish» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, xususan, oqova suvlarni uzatish quvurlarining samaradorligini oshirish, oqova suvlar tarkibidagi oqiziqqlar harakat qonuniyatlarini o'rganish asosida ularni samarali uzatish va tozalashning takomillashgan usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 - yil 11 - sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi PF - 158 - sonda belgilangan vazifalar, 2020 - yil 25 - sentyabrdagi PF - 6074 - son “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 28 - yanvardagi PF - 60 - son “2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni va 2018 - yil 30 – noyabrdagi PQ - 4040 - son

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 11- sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

“O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 - yil 9 - oktyabrdagi PQ - 4486 - son “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari, suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha ekologik talablar, ularning holatini baholash mezonlari, yer usti va yer osti suvlarining rejimi va sifatini samarali boshqarish usullarini ishlab chiqish chora - tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 - yil 24 - maydagi PQ - 257 - son “Aholining ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Quvurlarda ikki fazali oqimlar harakatining nazariy asoslari, matematik modellarini yaratish bo‘yicha X.A. Raxmatullin, F.I. Frankl, G.I. Barenblatt, V.M. Makkaveyev, M.A. Velikanov, A.V. Karaushev, I.I. Levi, X. Rauz, Y.A. Buyevich, A.N. Krayko, D.F. Fayzullayev, K.Sh. Latipov, A.I. Umarov, S.I. Kril, A.A. Shakirov, A.M. Arifjanov, I.X. Xujayev, Z. Malikov, A.M. Fatxullayev, L.N. Samiyev, S. Xudaykulov, X. Ilxomov, S. Sou, G. Uoilis, A. Fortye va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ikki fazali oqimlarning amaliy masalalaridan biri hisoblangan oqova suvlar quvurlarini gidravlik hisoblash usullari, oqova suvlarni tozalash texnika va texnologiyalarini ishlab chiqishda V.S. Dikarevskiy, Y.A. Karelin, V.G. Ponomaryov, V.G. Ivanov, N.S. Chernikov, I.G. Shafi - Zade, U.A. Soatov, E.J. Maxmudov, A.M. Arifjanov, A. Rizayev, A.T. Saloxiddinov, A.M. Fatxullayev, L.N. Samiyev, K. Raximov, Sh.Sh. Ergashev, E. Bo‘riyev, A. Babayev, U. Umarov va boshqalar tomonidan izlanishlar olib borilgan va ma‘lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Ular tomonidan naporli va naporsiz quvurlarda gidrotransport jarayonida ikki fazali oqim konsentratsiyasini, mexanik tarkibini e‘tiborga olib hisoblash usullari yaratilgan. Ikki fazali oqimlarning naporli va naporsiz quvurlarda, oqova suvlar tarkibi, fizik xususiyatlari hamda harakat rejimlarini inobatga olib tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shu bilan birga hozirgi kunda naporli va naporsiz quvurlarda ikki fazali oqimlar tarkibiy qismini inobatga olib qurilishda, suv ta’minotida va oqova suvlarni uzatish texnologiyalarini takomillashtirish, xususan, quvurlarda fazalarning miqdorini tarkibiy qismi, konsentratsiyasi va harakat rejimini o‘zgaruvchanligini inobatga olib oqimning parametrlarini hisoblash usullarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti va Toshkent

irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 1.11- son «Irrigatsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlar va suv omborlardan samarali foydalanishning gidravlik va gidrologik asoslarini ishlab chiqish» (2016 - 2020 yy.), BV - Atex - 2018 - 509- son «Oqova suv tizimlarining me'yoriy bazasini takomillashtirishning nazariy tamoyillari» (2018 - 2019 yy.) amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quvurlarda ikki fazali oqimning fizik xususiyatlarini va harakat rejimini inobatga olib tashuvchanlik qobiliyatini hisoblash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki fazali oqimlarning naporli va naporsiz quvurlarda harakatini, oqim tarkibiy qismini va harakat rejimini inobatga olib tadqiq etish;

quvurlarda ikki fazali oqim gidravlik parametrlarini hisoblash usulini fazalarining o'zaro ta'sirini inobatga olib takomillashtirish;

o'zi oqar quvurlarning tashuvchanlik qobiliyatini quvur materiali va oqim miqdorini uzluksiz o'zgaruvchanligini inobatga olib hisoblash usulini ishlab chiqish;

quvurlarda ikki fazali oqim harakati ta'sirida yuzaga keladigan gidravlik qarshiliklarni baholash va eng qulay gidravlik parametrlarni aniqlash usulini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Chirchiq shahar oqova suv boshqarmasiga qarashli «O'zsuvta'minoti» AJ «Toshkentsuvta'minoti» aksiyadorlik jamiyati hududidagi oqova suv quvurlaridagi gidravlik jarayonlar olingan.

Tadqiqot predmeti naporli va naporsiz quvurlardagi ikki fazali oqim kinematik parametrlarining shakllanishi va gidravlik jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida gidravlikada umum qabul qilingan usullar, gidromexanika qonunlari asosida matematik modellashirish hamda tajriba ma'lumotlarini qayta ishlashda matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quvurlarda ikki fazali oqimning matematik modeli, ikki fazali oqimning fizik xususiyatlari va harakat rejimini inobatga olib takomillashtirilgan;

o'zi oqar quvurlardagi gidravlik qarshiliklar baholangan hamda polietilen quvurlarda gidravlik ishqalanish koeffitsiyentini quvur g'adir - budurligi va Reynolds mezoniga bog'liq ravishda hisoblash usuli takomillashtirilgan;

suv oqova tarmoqlarida balchiqlanish tezligi (kritik tezligi), oqova suvlarni o'zi oqar quvurlarda harakatlanish shartlari oqova suvlar tarkibidagi muallaq moddalarning tarkibiy qismi, konsentratsiyasini miqdorini inobatga olib gidravlik hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

o'zi oqar tarmoqlarning to'lish darajasiga bog'liq ravishda asbest, po'lat va polietilen quvurlarda oqova suvlar oqimining tashuvchanlik qobiliyatini hisoblash usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zi oqar naporsiz quvurlarda oqova oqimining fraksion tarkibini hisobga olib kinematik parametrlarini hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

ikki fazali oqimning quvurlardagi harakati modeli asosida oqimning gidravlik parametrlarini hisoblash usuli takomillashtirilgan;

oqova suvlarni uzatish jarayonida quvurning gidravlik eng qulay holatini ta‘minlovchi oqimning energiyatejamkor parametrlari aniqlangan;

quvur materiali va harakat rejimiga bog‘liq ravishda resurstejamkor quvurlar tizimini hisoblash usuli tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan ilmiy natijalarda sinalgan matematik uslublardan foydalanganligi va mexanika qonunlariga mosligi bilan, hisoblab topilgan qiymatlarni solishtirganda eksperimental uslubda topilgan qiymatlarga yaqinligi, matematik statistika uslublaridan foydalanib natijalarni tahlil etilganligi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati silindrik quvurlarda ikki fazali oqimlarning harakatini ifodalovchi, oqova suvlarning fizik xususiyatlarini, oqimning hajmiy konsentratsiyasini hisobga olib oqimning gidravlik eng qulay parametrlariga asoslangan tashuvchanlik qobiliyatini aniqlovchi gidravlik modelni ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zi oqar quvurlarda oqova oqimining fraksion tarkibini hisobga olib kinematik parametrlarini hisoblash usuli ishlab chiqilganligi, ikki fazali oqimning quvurlardagi harakati modeli asosida oqimning gidravlik parametrlarini hisoblash usuli takomillashtirilganligi, oqova suvlarni uzatish jarayonida quvurning gidravlik eng qulay holatini ta‘minlovchi oqimning energiyatejamkor parametrlari aniqlanganligi, olingan natijalardan loyihalash amaliyotida, quvurlar tizimining o‘tkazuvchanligini baholashda, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quvurlarda ikki fazali oqimning tashuvchanlik qobiliyatini hisoblash usulini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

quvurlarda ikki fazali oqimning kinematik parametrlarini hisoblash metodi Toshkent viloyati Chirchiq shahar «Ma‘rifat» MFY xududining naporli quvurlarida amaliyotga joriy etilgan («O‘zsuvta‘minoti» aksiyadorlik jamiyatining 2025 - yil 13 - fevraldagi 1/21 - 612 - son ma‘lumotnomasi). Natijada oqova suv quvurlarining tashuvchanlik qobiliyati 15% gacha oshirish imkonini bergan;

naporli quvurlarda ikki fazali oqimning fraksion tarkibini inobatga olib kinematik parametrlarini hisoblash usuli Toshkent viloyati Chirchiq shahar «Ma‘rifat» MFY xududida amaliyotga joriy etilgan («O‘zsuvta‘minoti» aksiyadorlik jamiyatining 2025 - yil 13 - fevraldagi 1/21 - 612 - son ma‘lumotnomasi). Natijada oqova suvlar tarkibining o‘zgarishini inobatga oluvchi kritik tezlik topilgan va ikki fazali oqimning aniq miqdorini hisoblash imkonini bergan;

quvurlarda ikki fazali oqimlarning harakati davomida gidravlik qarshiliklarni hisoblash usuli Toshkent viloyati Chirchiq shahar «Ma‘rifat» MFY xududida amaliyotga joriy etilgan («O‘zsuvta‘minoti» aksiyadorlik jamiyatining 2025 - yil 13 - fevraldagi 1/21 - 612- son ma‘lumotnomasi). Natijada ikki fazali oqimda

gidravlik qarshiliklarni minimum darajaga yetkazish orqali energiya tejash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va Chirchiq OTQMBY miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 1 ta Scopus, 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy - amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, Scopus bazasida indeksatsiyalangan konferensiyalarda 3 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy hamda 1 ta DGU hisoblash dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Quvurlarda ikki fazali oqim harakatining tadqiqotiga doir izlanishlar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida quvurlarda ikki fazali oqim parametrlarini hisoblashning nazariy asoslari, oqim tashuvchanligini hisoblash usullari, oqova suvlarini naporli va naporsiz quvurlarda uzatish samaradorligini oshirishda mavjud va zamonaviy muammolari ko'rib chiqilgan hamda soha bo'yicha amalga oshirilgan ishlar analitik tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, ko'p va ikki fazali oqimlar deb turli fizik - mexanik xususiyatlarga ega ikki yoki ko'p fazali oqimlarni tashkil qiluvchi suyuqlik va qattiq zarrachalarning birgalikdagi harakati nazarda tutilgan. Quvurlarning tashuvchanlik qobiliyatining tadqiqoti ikki fazali oqimlar parametrlarini aniqlashda asosiy vazifalaridan biridir.

Naporli va naporsiz quvurlar orqali oqimni uzatish masalasida napor yo'qolishlari va oqimning kritik tezligi asosiy gidravlik parametrlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda ishlab chiqarishda, xususan, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimida foydalanilayotgan quvurlar tizimlarining yuqori qurilish va ekspluatatsion xarajatlarining oshishi va past samaradorligi asosiy kamchiliklaridan biridir.

Ikki fazali oqim gidravlik aralashmalarning xususiyatlari, birinchi navbatda, qattiq zarrachalarning granulometrik tarkibi va ularning hajmiy konsentratsiyasi bilan belgilanadi. Suyuqlik va qattiq zarrachalarning birgalikdagi harakati

davomidagi o'zaro ta'siri o'ziga xos napor yo'qotilishini va oqimning tashuvchanlik qobiliyatini belgilaydi.

Taklif etilgan formulalarning chegaralanganligi, ayrim hollarda yuqori aniqlikda emasligi har bir loyihalash obyekti shartlariga mos hisobiy bog'lanishlarni tanlab olinishiga hamma vaqt ham imkon beravermaydi.

Bunday hollarda u yoki bu formulalardan asossiz foydalanish keskin xatolarni keltirib chiqarishi, natijada quvurlar tizimidan foydalanish samaradorligini pasayishiga olib keladi. Quvurdagi ikki fazali oqim parametrlarini aniqlash uchun taklif etilgan hisobiy bog'lanishlar ko'p hollarda tajribalar natijasini ifodalaydilar va aynan shu tajriba natijalari asosida aniqlanadilar, shuning uchun bunday bog'lanishlardan foydalanish sohalari cheklangan. Oqim harakat rejimining har xil sohalarida, silliq sirtidan o'ta g'adir - budir sirtga o'tish sohalarida qarshiligining qonuniyatlari, sifat jihatidan, har xil donadorli g'adir - budirlikdagi quvurlar uchun belgilangan qonuniyatlaridan farq qilishi kuzatildi.

Analitik tahlil asosida shuni xulosa qilish mumkinki, ikki fazali oqimlarning quvurlardagi harakatini modellashtirishda va hisoblash usullarini ishlab chiqishda oqim parametrlarini aniqlashda ikki fazali harakat modellari va zamonaviy dasturlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **«Quvurlarda ikki fazali oqimlar harakatining tadqiqotlari»** deb nomlangan ikkinchi bobida ikki fazali oqimlarning naporli va naporsiz quvurlarda harakati davomida yuzaga keladigan jarayonlar hamda oqim tashuvchanligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Yuqorida bayon etilganidek ikki fazali oqimlar harakatini ifodalashda qator matematik modellar mavjud bo'lib, ikkinchi fazaning fizik xususiyatlariga qarab eng maqbul modellar qabul qilinadi. Quvurlardagi oqova suvlar harakatini bayon etishda ikki fazali oqimlar nazariyasi bo'yicha bu yo'nalishda amalga oshirilgan X.A. Raxmatulin, R.I. Nigmatulin, J.F. Fayzullayev, Q.Sh. Latipov, A.M. Arifjanov va boshqalarning ishlanmalariga tayanib oqimning tashuvchanlik qobiliyati baholangan.

Oqimdagi muallaq zarrachalarni tashuvchi suyuqliklar oqim harakatlanishining fizik jarayoni o'ta murakkab jarayondir.

Muallaq zarrachalarni quvurdagi harakatini ifodalovchi asosiy fizik parametrlardan biri kritik tezlik hisoblanadi. Kritik tezlik suyuqlik oqimidagi ikkinchi fazani harakatlanishi boshlanadigan oqim o'rtacha tezligi. Oqimning quvur tubidan ko'tariluvchi qattiq zarrachalar harakatlanadigan eng kichik tezligi joydan qo'zg'alish tezligi $\mathcal{G}_{kr}$ deb nom olgan.

Kritik tezlikni aniqlash uchun ikki fazali oqimlar nazariyasiga asoslanib quvur uzunligi bo'yicha bosim o'zgarishini quyidagi ko'rinishda yozamiz.

Oqimning ko'ndalang kesimi maydoni bo'yicha hamma xadlarini integrallab, muallaq zarrachalarni tashuvchi bir o'lchamli oqim uchun

$$\frac{dp}{dx} - \frac{\lambda_0 \rho Q^2}{2D\omega^2} - \frac{c\pi d}{\omega} \tau_0 = 0 \quad (1)$$

Ikki fazali oqimning zichligi va tezligi uchun harakat tenglamasini chiqarishda quyidagi belgilar qabul qilingan:

$$\rho = (1-c)\rho_1 + c\rho_2 \quad (2)$$

$$g = \frac{(1-c)\rho_1 g_1 + c\rho_2 g_2}{(1-c)\rho_1 + c\rho_2}, \quad (3)$$

$$R = \frac{\pi d}{\omega}; \quad (4)$$

bunda c - qattiq komponentning hajmiy konsentratsiyasi;

ρ_1, ρ_2 - suyuqlik va qattiq zarrachalar zichligi;

Q - ikki fazali oqim sarfi;

ω - quvurning ko'ndalang kesimi yuzasi;

g_1 va g_2 - mos ravishda quvurning ko'ndalang kesimi bo'yicha suyuq va qattiq zarrachalarning o'rtacha tezliklari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aralashma sarfi uchun quyidagi ifodani yozamiz:

$$Q = \sqrt{\frac{2D\omega^2}{\lambda_0\rho} \left(\frac{dp}{dx} - \frac{c}{R}\tau_0 \right)}, \quad (5)$$

bunda $P_1 - P_2 = \Delta P$ - bosim o'zgarishi.

U holda aralashmani harakatga keltirish uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$\frac{dp}{dx} > \frac{c}{R}\tau_0. \quad (6)$$


Keltirilgan shartga asolanib kritik tezlik uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$g_{kp} = \sqrt[3]{\frac{Dd_0^2\rho}{\mu_0 c \lambda_0}}; \quad (7)$$


Oqimning kritik tezligini aniqlash uchun taklif etilgan yangi bog'lanish suyuqlik oqimi va oqiziqqlarning qator parametrlarini inobatga oladi. Jumladan kanalizatsiya quvurida harakatlanayotgan oqimning harakat rejimi, fazalar konsentratsiyasi va tarkibiy qismini inobatga oladi.

Yuqorida bayon etilganidek ikki fazali oqim parametrlarini hisoblashda qator matematik modellar mavjud. Mavjud usullar ko'p hollarda naporli quvurlar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, naporsiz quvurlarda bu masalani yechishda o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishga to'g'ri keladi. Ma'lumki quvurlarda ikki fazali


oqimlar harakati turbulent rejimda. U holda turbulent oqim harakatini modellash tirishda va sonli yechimini topishda **RANS (Reynolds averaged Navier Stokes)** modeli keng qo'llanmoqda.



1- rasm. Ikki xil nishablikdagi quvurda $\rho=900 \text{ kg/m}^3$ zichlikka ega zarrachalarning harakati



2- rasm. Ikki xil nishablikdagi quvurda $\rho=1000 \text{ kg/m}^3$ zichlikka ega zarrachalarning harakati




3- rasm. Ikki xil nishablikdagi quvurda $\rho=1100 \text{ kg/m}^3$ zichlikka ega zarrachalarning harakati


Qaralayotgan masala doirasida jarayonni real sharoitlarda simulyatsiya qilishda **ANSYS FLUENT** dasturidan foydalanildi. Natijada oqim parametrlari aniqlandi va vizualizatsiya qilindi.

Hisoblash ishlari quvurning har nishabliklarida va qattiq zarrachalarning har xil zichliklarida amalga oshirildi. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, agar qattiq zarrachalar zichligi suyuqlik zichligidan kichik bo'lsa qattiq zarrachalar oqimi suyuqlik sathiga qarab intiladi (1- rasmga qarang). Agar suyuqlik zichligidan katta bo'lsa, quvur tubiga qarab intiladi (2, 3- rasmlarga qarang). Olingan natijalar bo'yicha quvurda yuzaga keladigan jarayonlar va gidravlik parametrlar quvurning har xil nishabligida va fazalar zichligining har xil qiymatlarida aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Quvurlarda ikki fazali oqim harakatining tabiiy dala sharoitida va laboratoriya tadqiqotlari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot obyektida real sharoitda oqova suvlarining fizik xususiyatlari, konsentratsiyasi va tarkibiy qismini aniqlash bo'yicha dala tadqiqotlari natijalari hamda laboratoriya sharoitida quvurlarda yuzaga keladigan gidravlik qarshiliklarning tadqiqoti natijalari keltirilgan (4- rasmga qarang).



4- rasm. Yillar kesimida o'rtacha quruq qoldiq miqdori



5- rasm. Qattiq zarrachalarning integrallashgan grafigi

Real obyektidagi tadqiqotlar «Toshkentsuvta'minoti» aksiyadorlik jamiyati hududidagi Chirchiq shahar filiali oqova quvurlar tizimida olib borildi. Oqova suvdan olingan namunalar laboratoriya sharoitida tahlil etildi. Tahlil natijalari jadval va grafik shaklida taqdim etildi.


Olib borilgan tajribalardan shu ayon bo'ldiki oqova suvlar tarkibidagi qattiq zarrachalar ko'p fraksiyali bo'lib, asosiy qismini 0,1 mm dan kichik bo'lgan oqiziqlar tashkil etadi (5- rasmga qarang).

Laboratoriya tadqiqotlarida hozirgi kunda suv ta'minoti, kanalizatsiya quvurlarini loyihalash va qurish jarayonida keng miqyosda foydalanilayotgan polietilen quvurlardagi gidravlik jarayonlarni baholashga qaratildi. Buning asosiy sabablari polietilen quvurlar metall quvurlarga nisbatan tannarxi arzonligi, o'rnatish va qurish ishlari oson va soddaligi, ishlash muddatining ko'pligi bilan farq qiladi. Ammo gidravlik nuqtai nazardan hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun polietilen quvurlar bo'yicha ma'lumotlar yetarli emasligi tajriba ishlarini o'tkazishni taqozo etdi. Laboratoriya tadqiqotlari maxsus qurilmada amalga oshirildi.

Quvurlar gidravlik hisobini bajarishda gidravlik ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti qiymati harakat rejimi va quvur materialiga bog'liq ravishda aniqlanadi.

Olingan natijalar matematik statistika usulidan foydalanib tahlil etildi va gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti uchun yangi bog'lanish olindi:


$$\lambda = \frac{0.685}{\left(\frac{\Delta}{Re}\right)^{0.035} Re^{0.35}}; \quad (8)$$



6- rasm. Gidravlik ishqalanish koeffitsiyentining Reynolds soniga va quvur g'adir - budirligiga bog'liqlik grafigi


Bu esa o'z navbatida suv ta'minoti quvurlarini gidravlik hisobini bajarishda va loyihalashda yillar davomida g'adir - budirlikning o'zgarishini inobatga olishi kerakligini bildiradi (6- rasmga qarang).

Tahlillar asosida tavsiya etilgan formulani injenerlik hisoblashlarda foydalanish mumkinligi asoslandi (7- rasmga qarang).




7- rasm. Tavsiya etilgan formulaning qiyosiy tahlili

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar natijasida ko'ndalang kesimi silindr shaklida bo'lgan quvurlarning gidravlik elementlarini aniqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.




8- rasm. Oqim sarfi Q va nisbiy chuqurlik α orasidagi funksional bog'lanish grafigi

Turli diametrlardagi kanalizatsiya quvurlarida suv oqimining har xil chuqurliklari bo'yicha gidravlik elementlari aniqlandi.



9- rasm. Oqim o'rtacha tezligi V va nisbiy α chuqurlik orasidagi bog'lanish grafigi

Aniqlangan natijalar matematik va statistik tahlil etilib, drenaj quvurlarining gidravlik eng qulay kesimini asoslash bo'yicha oqim chuqurligi va quvur diametri orasida bog'lanish olindi (8, 9- rasmlarga qarang).



10- rasm. Gidravlik nishablikni oqim tezligiga bog'liq ravishda o'zgarishi

a) bir fazali oqim uchun; b) ikki fazali oqim uchun

Ushbu bog'lanish natijasida drenaj quvurlarida suv oqimi chuqurligi diametrining 82,5 % qiymatida harakatlansa gidravlik jihatdan eng qulay kesimga

ega bo'lishi asoslandi. Kanalizatsiya quvurlarining 300 mm, 400 mm va 600 mm diametrli quvurlar uchun gidravlik eng qulay kesimi parametrlari asoslandi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida suv va qattiq zarrachali oqimlar uchun solishtirma gidravlik qarshiligi aniqlandi (10- rasmga qarang).

Tahlillar bo'yicha shunday xulosa qilish mumkinki, oqim gidravlik elementlarini aniqlash bo'yicha taklif qilingan hisoblash formulasidan muhandislik masalalarini hisobida foydalanish mumkin.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar**» deb nomlangan to'rtinchi bobida tavsiya etilgan hisoblash usullarini amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar hamda ishning iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Kanalizatsiya tarmoqlarini hisoblash quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:

- suv sarfini aniqlash; tarmoqning gidravlik hisobini o'tkazish;
- quvur diametrini tanlash; tarmoqning trassasini belgilash;
- nasos stansiyalari va tozalash inshootlarini loyihalash.

Kanalizatsiya tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda, yuqorida keltirilgan yondashuvlarni kompleks ravishda qo'llash va doimiy ravishda monitoring qilish muhimdir. Bu orqali tizimning ishlashini optimallashtirish va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash mumkin.

Tadqiqotlar davomida to'plangan ma'lumotlar, obyektida olib borilgan o'lchov kuzatuv ishlari natijalariga ko'ra Chirchiq shahar, «Ma'rifat» MFY xududidagi mavjud oqova suv tizimi quvurlari to'la rekonstruksiya qilinishi zarurligi aniqlangan.



11- rasm. «Ma'rifat» MFY xududidagi 2720 metr uzunlikdagi kanalizatsiya quvurlarining tannarxi hisobi

Ushbu xududda foydalanib kelinayotgan kanalizatsiya quvurlari eskirib foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelib qolganligi aniqlangan.

«Ma'rifat» MFY xududida 2720 metr uzunlikdagi kanalizatsiya tarmog'ini «SMART ARCHENG» loyiha tashkiloti bilan hamkorlikda loyihasi va gidravlik hisob-kitoblari amalga oshirildi. Gidravlik hisob ishlarini bajarishda «Ma'rifat» MFY xududida kelgusi yillarda aholi sonini o'sishini hamda buyurtmachi talabini inobatga olib quvur diametri tanlangan.

Berilgan tavsiyalar asosida kanalizatsiya tizimlarida polietilen quvurlardan foydalanish taklif etildi. Ushbu holatda oqimning tashuvchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortishi va material tannarhi hisobiga tanlangan xudud uchun quyidagi mablag'lar tejab qolinadi (11- rasmga qarang).

XULOSALAR

Quvurlarda ikki fazali oqimning tashuvchanlik qobiliyatini hisoblash uslubini takomillashtirish mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Silindrik quvurlarda ikki fazali oqimlar harakatiga doir tadqiqotlarning analitik tahlili asosida oqimning tashuvchanlik qobiliyatini baholashga ta'sir etuvchi omillar, jumladan ikki fazali oqimning harakat rejimi, fazalar konsentratsiyasi va ularning tarkibiy qismini inobatga olish zarurligi asoslandi.

2. Quvurlarda ikki fazali oqimlar harakati turbulent ekanligini inobatga olib oqimning o'rtacha va o'zgaruvchan komponentlari **RANS (Reynolds averaged Navier - Stokes)** modeli qo'llanib ANSYS FLUENT dasturida aniqlandi va vizualizatsiya qilindi. Natijada murakkab gidrodinamik jarayon ikki fazali oqim parametrlarini vizualizatsiya qilish imkoni paydo bo'ldi.

3. Laboratoriya sharoitida va tabiiy dala sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha oqova suvlar ikki fazali oqim sifatida qaralib, oqim tarkibiy qismi, fizik xususiyatlari, fraksion tarkibi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar asosida oqimning kritik tezligini aniqlash uchun hisoblash formulasi tavsiya etildi.

4. Olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ikki fazali oqimda solishtirma gidravlik qarshilikni gidravlik jihatdan qulay holat uchun oqim fizik xususiyatlarini inobatga olib aniqlash uslubi takomillashtirildi. Natijada bir fazali va ikki fazali oqimlarda solishtirma gidravlik qarshilikni har xil qiymatlarida quvurlar tizimini loyihalash imkoniyati yaratildi.

5. Oqimning gidravlik parametrlariga quvur materialining va oqim harakat rejimining ta'sirini baholash uchun o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari ma'lumotlarini statistik tahlili asosida (korrelyatsiya koeffitsiyenti **R=0,96** ga teng) gidravlik ishqalanish koeffitsiyenti hamda Reynolds soni va quvur g'adir-budirliги orasidagi bog'lanishning matematik ifodasi tavsiya etildi.

6. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida naporsiz quvurlarda quvurning to'lish darajasi, oqova suvlarning tarkibiy qismi va konsentratsiyasi inobatga olinib oqim tashuvchanlik qobiliyati baholandi. Natijada quvurning materiali va fazalar konsentratsiyasi inobatga olinib oqim tashuvchanlik qobiliyatini aniqlash usuli tavsiya etildi.

7. Olib borilgan nazariy, laboratoriya va ishlab chiqarishdagi tadqiqotlar asosida ikki fazali oqimlarning naporli va naporsiz quvurlardagi gidravlik hisobini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va natijani o'quv jarayoniga hamda «O'zsuvta'minot» aksiyadorlik jamiyati korxonalarida foydalanishga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/2 7.02.2020. Т.73.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ЧИРЧИКСКОЕ ВЫСШЕЕ ТАНКОВОЕ КОМАНДНОЕ ИНЖЕНЕРНОЕ
УЧИЛИЩЕ**

ХУСАНОВА ДЖАМИЛЯ КУРАМБАЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА РАСЧЁТА
ТРАНСПОРТИРУЮЩЕЙ СПОСОБНОСТИ ДВУХФАЗНОГО ПОТОКА
ЖИДКОСТИ В ТРУБОПРОВОДАХ**

05.09.07 - Гидравлика и инженерная гидрология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/T4535.

Диссертация выполнена в Чирчикском высшем танковом командном инженерном училище.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу (www.tashiit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Арифжанов Айбек Мухамеджанович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Баходиров Азиз Абдулазизович
доктор технических наук, профессор

Жураев Шерали Шарипович
д.ф.т.н. (PhD), доцент

Ведущая организация:

Ташкентский архитектурный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. ____ часов на заседании Научного совета DSc.15/27.02.2020. T.73.02 при Ташкентском государственном транспортном университете по адресу 100167, г. Ташкент, ул. Темир йулчилар, 1. Тел.: (+99871) 299-00-01; факс: (+99871) 293-57-54; e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер ____). Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темир йулчилар, 1. Тел.: (+99871-299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(реестр протокол рассылки № ____ от «___» _____ 2025 г.)

А.В. Умаров

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Э.У. Тешабаева

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Н.К. Турсунов

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире применение энерго-, ресурсосберегающих технологий и методов управления движением двухфазных потоков в трубопроводной системе, в строительстве, водоснабжении, канализации, горнодобывающей, химической и других отраслях промышленности занимает одно из ведущих мест. Повышение транспортирующей способности систем водоснабжения во всем мире и нахождение экономически и гидравлически эффективных решений требует практической реализации методов расчёта, учитывающих взаимодействие двухфазных потоков в трубопроводах, с учетом взаимодействия фаз при различных режимах движения. В связи с этим использование современных инновационных технологий важно для расчета движения двухфазных потоков в трубах.

При проектировании, строительстве и эффективном использовании трубопроводных систем по всему миру, на основе исследований законов движения различных взвешенных веществ в воде, проводятся исследования по определению динамики распределения взвешенных частиц сточных вод по глубине и длине трубопровода, оценке транспортирующей способности сточных вод, имеющих взвешенные вещества, повышению гидравлической эффективности системы трубопроводов. В связи с этим особое внимание уделяется определению динамики движения воды и различных частиц в системах водоснабжения и канализации, а также обоснованию и управлению их параметрами и методами расчёта.

В нашей республике достигаются определенные результаты в обеспечении эффективного использования водопроводных и канализационных трубопроводов, а также бесперебойной подаче питьевой воды, оптимальной работы канализационных трубопроводов в гидравлическом режиме, реализуются комплексные мероприятия по совершенствованию новых современных методов гидравлических расчётов с учётом механического и химического состава жидкостей. По реализации стратегии «Узбекистан – 2030»¹ определены важные задачи, среди которых «...внедрение показателей качества питьевой воды, уровня питьевого водоснабжения, эффективности работы предприятий водоснабжения и канализации». При реализации этих задач, в частности, важное значение имеет повышение эффективности работы трубопроводов транспортировки сточных вод, разработка усовершенствованных методов их эффективной перекачки и очистки на основе изучения закономерностей движения взвешенных веществ сточных вод.

Данное диссертационное исследование направлено на выполнение задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года УП - 158 Стратегии «Узбекистан - 2030», в Указе Президента от 25 сентября 2020 года УП - 6074 «О мерах по дальнейшему

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года УП-158 о Стратегии «Узбекистан -2030».

